

## TILSHUNOSLIK ATAMALARI LUG'ATI VA UNING TA'LIMDA TATBIQ ETILISHI

Go'zal Rustamovna Tilovova

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM o'qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Mustaqillik sharoitida o'zbek tilshunosligida fanning taraqqiyoti va rivoji bu fanning lingvistik terminologiyasini ham o'zgartirishga undadi. O'zbekona umummilliy, o'quvchilar tushunadigan, tez anglaydigan terminlar miqdori kam emas, balki sifat tomonidan ko'paytirish davri keldi. O'zbek tili dunyo tillari ichida eng boy va ifodali tillardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda o'zbek tilining mavqeい sezilarli darajada o'shamoqda. Ushbu maqolada tilshunoslik atamalari lug'atining ta'lif jarayonlariga tadbiq etilishi va uning axamiyati xaqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** terminologiya, izohli lug'at, lingvistik lug'at, lingvistik termin, leksika, leksema, lug'at maqola.

### ABSTRACT

In the conditions of independence, the progress and development of the science of Uzbek linguistics prompted a change in the linguistic terminology of this science. The period has come to increase not only the quantity, but also the quality of Uzbek national terms, which students understand and understand quickly. The Uzbek language is one of the richest and most expressive languages in the world. At present, the positions of the Uzbek language are increasing significantly. This article talks about the application of a dictionary of linguistic terms to educational processes and its meaning.

**Key words:** terminology, explanatory dictionary, linguistic dictionary, linguistic term, vocabulary, lexeme, dictionary entry.

### KIRISH

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, shu jumladan, mustaqillik natijasida tilimizda hurmat va e'tiborning kuchayishi, ayniqsa, o'rta maktablarda ona tili fanini o'qitish va o'rgatishdagi talab va ehtiyojlarning oshishi ona tilini yanada chuqurroq va ko'proq bilishimizni taqozo etadi.

Har qanday milliy tilning asosiy so'z boyligini, shu tilning tarixan rivojlanishi hamda muayyan lug'atni yaratish chog'idagi turg'un holatini lisoniy tizim va nutqiy faoliyat birligida ifoda qiluvchi katta hajmli filologik lug'atlar ulkan madaniy

ahamiyatga molik ishlar sifatida baholanadi. Shu bilan birga, ularning keng kitobxonlar qo‘lidan tushmaydigan, qo‘llanish muddati esa faol va abadiy emas. Chunki tilning eng harakatchan qimi bo‘lgan leksikada, hatto sho‘ro davrida, turg‘unlik yillarida ham, bir tomondan, so‘zlarning eskirishi, ikkinchi tomondan, ularning yangilanishiga olib keluvchi jarayonlar to‘xtab qolgani yo‘q.

Yuqorida aytilganidek, har qanday tilning rivojlanishiga uning leksikasi tez, sezirali va jiddiy o‘zgarishlarga uchraydi. Leksikadagi taraqqiyot yangi lug‘aviy birliklarning iste’moldan chiqishi, so‘zlarning yangi ma’nolar kasb etishi va ayrim ma’nolarning yo‘qolishi kabi hodisalar bilan xarakterlanadi. Ana shunday o‘zgarishlar ma’lum darajada etgach, ularning nazariy va amaliy jihatdan aks ettiruvchi ishlarga ehtiyoj tug‘iladi. Amaldagi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” ham xuddi shunday ehtiyoj, talab tufayli juda katta mehnat evaziga yuzaga kelgan va u ma’lum vaqtida qadar (aytish mumkinki, O‘zbekiston mustaqillikka erishguncha, 90-yillar o‘rtalarigacha) o‘z vazifasini o‘tab keldi. Lekin bu lug‘at ma’lum sabablarga ko‘ra, xususan, lug‘atda so‘z tanlashdan tortib, so‘z ma’nolarini belgilash, qayd etish, izohlash masalalarida bir qator kamchiliklarga ega ekanligi, o‘tgan asrning 70-yillaridan shu vaqtga qadar o‘zbek tili leksikasida ro‘y bergen katta o‘zgarishlarni o‘zida aks ettirmaganligi (bu holatning sababi yuqorida qisman aytib o‘tildi), resapublikaning mustaqillik holatiga mos, muvofiq kelmaydigan siyosiy, mafkuraviy qarashlarni muayan darajada ifodalaganligi tufayli, hozirgi kun talablariga javob bera olmay qoldi. Hususan, o‘zbek tilining bebaho mulki bo‘lgan, hayotda bekamu ko‘sit xizmat qilayotgan juda ko‘p so‘zlar “eskirgan” kabi tamg‘alar tazyiqqa uchradi, iste’moldan chiqarildi, ularning o‘rnini “ruschabaynalminal so‘zlar” egalladi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Albatta, hozirgi davrda lug‘atlar yo‘q joydan yaratilmaydi. Tuzuvchilar yangi lug‘atni yaratishda mavjud ikki jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” materialaridan unumli, lekin tanqidiy nuqtai nazardan foydalanadilar. Shu bilan birga, yangi lug‘atni avvalgisining to‘ldirilgan, qayta ishlangan varianti deb baholamaslik kerak. Besh jiddan iborat yangi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” o‘zbek va jahon lug‘atchiligining yangi ijobjiy yutuqlarini, O‘zbekiston mustaqilligi yillarida hayotimizda ro‘y bergen tub o‘zgarishlar va shu munosabat bilan o‘zbek tili leksikasida sodir bo‘lgan yangiliklarni e’tiborga olib yaratiladigan yangi lug‘atdir.

R.A Budagovning ta’kidlashicha, biror nazariya, usul, boringki, lug‘atning eskisiga nisbatan yangiligi faqat terminbozlikdan iborat bo‘lar ekan, bunday yangilik fanni olg‘a rivojlantirmaydi, balki uning taraqqiyotida to‘sqinlik qiladi. [1].

Ushbu fikrga javoban quyidagi dalillarni aytish mumkin: lug‘atning yangiligi mavjud ikki jildlikdan farqli tomonlari, u, eng avvalo, mustaqillik yillarida mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotida ro‘y bergen

yangiliklarni aks ettiruvchi lug‘aviy birliklar (so‘z – terminlar, so‘z birikmalari) bilan boyitildi, sho‘ro mafkurasi bilan bog‘liq so‘zlar, atmalar, so‘z birikmalaridan xoli qilindi, “tozalandi” (zarur hollarda ular “eskirgan”, “tarixiy”, “diniy” kabi belgilar bilan berilib, ma’nosi o’sha davr mafkurasi nuqtai nazaridan bir tomonlama izohlangan so‘z terminlar hozirgi kun talablaridan kelib chiqib qayta izohlandi.

O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, shu jumladan, mustaqillik natijasida tilimizda hurmat va e’tiborning kuchayishi, ayniqsa, o’rta maktablarda ona tili fanini o‘qitish va o‘rgatishdagi talab va ehtiyojlarning oshishi ona tilini yanada chuqurroq va ko‘proq bilishimizni taqozo etadi.

## NATIJALAR

Har bir sohaga oid iloji boricha keng va to‘la qamrab oladigan, hodisaning mohiyatini to‘g‘ri, to‘la va aniq aks ettiriladigan atamalarni izohli terminologik lug‘atlarni yaratish shu soha mutaxasislarining eng birinchi galdegisi vazifalaridandir. Xuddi shu maqsadda birinchi marta “O‘zbek tili lingvistik terminlarining izohli lug‘ati” Azim Hojiyev tomonidan 1985-yilda “O‘qituvchi” nashriyotida chop etildi.

Lekin qator sabab va talablar shu lug‘atni qayta ishlab nashr etishni kun tartibiga qo‘ydi. Natijada “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati” 2002-yilda qayta nashrdan chiqdi hamda kitobxonlarga etkazib berildi.

A. Hojiyevning mazkur lug‘atida berilgan ba’zi atamalar ham mакtab darsliklarining amaldagi atamalaridan bir oz farqlanadi [2].

Maktab darsliklarining amaldagi atamalarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchi tomonidan aytildigan lisoniy atamalarni o‘quvchilarni qabul qilishida qiyinchiliklar mavjud. Bu atamalarni o‘zida singdirish, hazm qila olish uchun ma’lum malaka, bilim saviyasi, lisoniy lug‘at-qo‘llanma bo‘lishi lozim. Barcha darsliklarda atamalar bir xil, bir tushunchada berilishi lozim.

O‘quvchi o‘zi mustaqil o‘zlashtirishi qiyin bo‘lgan atamalarni shu atamalar izohi berilgan lug‘atlar yordamida tushunsa hamda o‘zlashtirsa, ona tili ta’lim mazmuni oldiga qo‘yilgan yana bir maqsadga erishilgan bo‘lur edi. [3].

Mustaqillik sharoitida o‘zbek tilshunosligida fanning taraqqiyoti va rivoji bu fanning lingvistik terminologiyasini ham o‘zgartirishga undadi. O‘zbekona umummilliy, o‘quvchilar tushunadigan, tez anglaydigan terminlar miqdori kam emas, balki sifat tomonidan ko‘paytirish davri keldi. O‘zbek tili dunyo tillari ichida eng boy va ifodali tillardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda o‘zbek tilining mavqeい sezilarli darajada o‘smoqda.

Umuman, terminologiyaga oid barcha ishlarning muvaffaqiyatli hal etilishiga har bir sohaga oid atamalarni to‘la qamrab olgan terminologik lug‘atlarni tuzish va nashr etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday lug‘atlarda har bir atamaning o‘zi atayotgan tushunchaning, narsa-hodisaning mohiyatini qay darajada to‘g‘ri, to‘la va aniq

ifodalashini belgilash muhimdir. Bu bilan har bir atamaning talabga qanchalik muayyan javob berish bermasligi aniqlanadi. Ana shunday lug‘atlar yaratilmaguncha terminologik tizimdagi har bir salbiy hodisalar davom etaveradi. Bunday nomaqbul hodisalar esa ilm-fanning xohlagan sohasiga oid adabiyotlarda, ilmiy ishlardan tortib darslik va qo‘llanmalargacha, shuningdek, boshqa manbalarda ham ko‘plab uchratish mumkin. [4].

Lug‘at bilim manbai va o‘qitish vositasidir. So‘z ma’nosini sharhlash, ma’lum bir so‘zning imlosini bilib olish, so‘z guruhlarini mustaqil davom ettirish, berilgan so‘zga ma’nodosh, uyadosh so‘zlar tanlash singari ijodiy amaliy topshiriqlarni bajarishda lug‘atlardan keng foydalaniladi. Ehtiyoj tug‘ilganda o‘quvchining birinchi maslahatchisi lug‘atdir.

1. Maktab o‘quvchilari uchun tilshunoslik atamalari lug‘ati hozirgi kunda o‘quvchilarga til ilmini osonroq va qulayroq tartibda o‘rganishda talab etilayotgan eng muhim qo‘llanma hisoblanadi.

2. Maktab o‘quvchilari uchun tuziladigan tilshunoslik atamalari lug‘ati har bir sath birliklarini to‘g‘ri va sodda, ayni vaqtda, o‘quvchining saviyasiga mos ravishda jamlagan bo‘lishi lozim.

3. Mazkur lug‘at o‘zida milliylik ruhini singdirgan bo‘lishi, shuning uchun ham tartiblanadigan so‘zlar atamaning asl lug‘aviy ma’nosini ifodalagan, alalxusus ular umumiste’molli nutqiy ma’nolardan xoli bo‘lishni talab etadi.

## XULOSA

Qisqa qilib aytiganda, o‘zbek tilini o‘rganish va o‘qitishda lug‘atlarning amaliy qimmatini o‘zbek tilida saboq beruvchi har bir muallim juda yaxshi tushunadi. Chunki o‘zbek tili darsliklardagi lisoniy atamalarni o‘quvchilarga tushuntirishda asosiy mas’uliyat o‘qituvchi zimmasiga tushadi. Uni qanday tushuntirish esa o‘qituvchining savodxonlik darajasiga bog‘liq. O‘quvchi o‘zi mustaqil o‘zlashtirishi qiyin bo‘lgan atamalarni shu atamalar izohi berilgan lug‘atlar yordamida tushunsa hamda o‘zlashtirsa, ona tili ta’lim mazmuni oldiga qo‘yilgan yana bir maqsadga erishilgan bo‘lur edi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Будагов Р.А. Толковые словари в национальной культуре народов. –М издательство Московского государственного университета 1989. 94-стр.
2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. Toshkent, “O‘qituvchi”, 2002, 9–33-betlar.
3. Usmonov K., Safarov F. Grammatik terminlarning o‘rta maktab yuqori sinflarida o‘qitilishi haqida mulohazalar. Ilmiy to‘plam. Ona tili o‘qitishning nazariy va amaliy masalalari. Qarshi. 1989. 12-17-betlar.
4. Qurbanova M. O‘zbek tilshunosligida formal-funktsional yo‘nalishi va sodda gap qurilishining taqmini. Doktorlik dissertatsiyasi. Toshkent. 2001. 30-bet.